

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

**Xalqaro xususiy huquqda intellektual mulk obyektlarini o`tkazish shartnomalarini huquqiy tartibga solish muammolari**

*G`anijonova Mavludabonu Sharifjon qizi*

*Toshkent Davlat Yuridik universiteti*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada xalqaro xususiy huquq sohasida intellectual mulk obyektlarini o`tkazish shartnomalarining huquqiy asosi shuningdek mualliflik huquqlari, savdo belgilari va ularning dizaynlari, patentlar bo`yicha xalqaro xususiy huquq normalarini yanada takomillashtirish qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi xususida so`z boradi. Shu bilan birgalikda Bern konvensiyasi, Parij konvensiyasi va JST TRIPS kelishuvi kabi xalqaro huquqiy asoslar o`rganilib, litsenziya shartnomalarining xalqaro miqyosda tan olinishi va uni amaliyotda qo`llash bilan bog`liq muammolar muhokama qilinadi. Intellectual mulk obyektlarini o`tkazish jarayonidagi milliy huquqiy tizimdagi asosiy farqlar va sud amaliyotining muhimlik darajasi shu bilan birgalikda ushbu soha bo`yicha huquqiy noaniqliklarni bartaraf etish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligi batafsil bayon etiladi.

**Kalit so`zlar:** intellectual mulk obyektlari, litsenziya shartnomalari, mualliflik huquqi, patent huquqi, Bern konvensiyasi, Parij konvensiyasi, JST TRIPS kelishuvi, huquqiy noaniqlik, sud amaliyoti, xalqaro hamkorlik.

### **Kirish**

Intellectual mulk obyektlari fuqarolik huquqining ham, uning tarkibiy qismi bo`lgan xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarning ham o`ziga xos obyekti hisoblanadi. Ushbu obyektlar ko`proq g`oyaviy negizga ega bo`lgani sababli ularga nisbatan odatdagi an`anaviy mulk huquqi me`yorlarini qo`llab bo`lmaydi. Shu sababli ham ularga nisbatan bo`lgan huquqlarga ko`proq mutloq huquqlar deb atalmish huquqlar majmui qo`llaniladi.<sup>1</sup>

Xalqaro miqyosda intellectual mulk obyektlariga nisbatan ahamiyatning ortishi hamda ular bilan bog`liq mualliflik huquqlari, patent, savdo belgisi shuningdek uning dizayni bilan bog`liq huquqlarni o`tkazish orqali vujudga keladigan harakatlarning murakkablashishi ushbu mulk turlari bilan bog`liq shartnomalar ustida maxsus huquqiy tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish zaruratini oshiradi. Bundan kelib chiqadiki xalqaro xususiy huquqning muhim bir qismi sifatida tan olingan intellectual mulk obyektlarini o`tkazish shartnomalarini tartibga solish masalalari va shu bilan birga ushbu sohada global miqyosdagi kelishuvlar, milliy qonunchilik tizimi va sud amaliyotlari o`rtasidagi o`zaro bog`liqlikni talab qiladi. Bu kabi holatlar esa ko`pincha huquqiy noaniqliklarni vujudga keltirishi mumkin.

Bundan tashqari O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1032-moddasi intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish bilan bog`liq bo`lib, unga ko`ra:

Intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi tufayli yoxud ushbu kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda va tartibda vakolat berilgan

---

<sup>1</sup> Xalqaro xususiy huquq darslik 2019-yil

davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga keladi. Oshkor etilmagan axborotga huquqiy muhofaza berish shartlari qonun bilan belgilanadi.<sup>2</sup>

Ushbu norma orqali intellectual mulkning turli obyektlarini huquqiy muhofaza qilishni vujudga kelish xususiyatlari belgilab qo'yilgan. Intellectual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish deganda huquq egalari subyektiv huquqlarini huquqiy himoya qilish tushuniladi. Intellectual mulk obyektlari o'z-o'zicha huquqiy muhofaza qilinmaydi balki amalda ushbu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlarga ega bo'lgan shaxslarning huquqlari ( mualliflarning shaxsiy huquqlari, mutloq huquqlar egalari huquqlari, litsenziya bo'yicha foydalanuvchilar huquqlari, avvaldan foydalanuvchilarning huquqlari va boshqalar) huquqiy muhofaza qilinadi.

### Xalqaro konvensiyalar

Intellectual mulk obyektlarini xalqaro doirada huquqiy tartibga solishning asosi sifatida bir qator xalqaro kelishuvlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ular yuqorida sanab o'tilgan Bern konvensiyasi, Praij konvensiyasi va JST TRIPS kelishuvlari hisoblanadi.

Bular orasida eng muhimlaridan biri Bern konvensiyasi hisoblanadi va u mualliflik huquqlarini himoya qilishda xalqaro standartlarni belgilaydi. Mazkur konvensiya ishtirokchi davlatlarda mualliflik huquqlarining universal tan olinishini ta'minlashga qaratilgan va uning qoidalari ko'plab davlatlarning milliy qonunchiliklarida o'z aksini topganligini bilishimiz mumkin. Shuningdek, konvensiya mualliflik huquqlarini bir davlatda tan olish orqali barcha ishtirokchi davlatlarda himoya qilishni ta'minlaydi. Bern konvensiyasi bo'yicha muallif o'z asarining reproduksiya qilinishi, tarqatilishi va ommaviy namoyish qilinishi ustidan nazorat huquqini oladi. Ushbu konvensiya bo'yicha himoya muddatlariga keladigan bo'lsak, ushbu muddat muallif vafotidan keyin 50 yilni tashkil etadi.

Bern konvensiyasiga atroflicha to'xtaladigan bo'lsak, ushbu konvensiya "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiya bo'lib, u asarlar va ularning mualliflarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Bern konvensiyasi 1896-yilda Parijda va 1908-yilda Berlinda qayta ko'rib chiqilgan. 1914-yilda Bernda yakunlangan. 1928-yilda Rimda, 1948-yilda Bryusselda, 1967-yilda Stokgolmda va 1971-yilda Parijda qayta ko'rib chiqilgan va 1979-yilda tuzatish kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Bern konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2004-yil 27-avgustdagi 681-II-sonli Qaroriga asosan qo'shilgan. Mazkur konvensiyaga qo'shilish mamlakatimizda intellectual mulk huquqi va uning himoyasi bilan bog'liq yo'nalishda katta o'zgarishlarga zamin hozirladi.

Parij konvensiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu konvensiya 1883-yilda qabul qilingan bo'lib savdo belgilari, patentlar, sanoat dizaynlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro ko'lamda davlatlar o'rtasida tan olingan tamoyillarni belgilaydi. Shu bilan bir qatorda Parij konvensiyasiga a'zo bo'lgan davlatlarda intellectual mulk huquqiga nisbatan ya'ni uning obyektlari himoyasi masalasi bir xil tarzda amalga oshiriladi. Ya'ni Parij konvensiyasiga a'zo bo'lgan har bir davlat o'z fuqarolari uchun qanday huquqiy himoya imkoniyatlarini taqdim etgan bo'lsa boshqa a'zo davlat fuqarolari uchun ham shunday imkoniyatlarni taqdim etishi kerak.<sup>3</sup> Parij konvensiyasi patentlar

<sup>2</sup> O'zb Resi Fuqarolik kodeksi

<sup>3</sup> Sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha Parij konvensiyasi

va savdo belgilarining himoyasi turli xil davlatlarda tan olinganligi bois Parij konvensiyasi ma'lum bir ma'noda xalqaro savdoning rivojlanishida hamda sanoatning raqobatbardosh bo'lishida yetachi omil bo'lib xizmat qiladi.

Konvensiyaning dastlabki matni 1883-yilda tuzilgan, 1891-yilda Madridda Tushuntirish 232 bayonnomasi bilan to'ldirilgan, 1900-yilda Bryusselda, 1911-yilda Vashingtonda, 1925-yilda Gaagada, 1934-yilda Londonda, 1958-yilda Lissabonda, 1967-yilda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979-yilda unga tuzatishlar kiritilgan. Konvensiya barcha davlatlar uchun ochiq. Ratifikatsiya yorlig'i yoxud qo'shilish haqidagi hujjat BIMT Bosh direktoriga saqlash uchun topshirilishi lozim. Konvensiya keng ma'nodagi sanoat mulki sohasida qo'llaniladi. Uning doirasiga ixtirolar, tovar belgilari, xizmat belgilari, sanoat namunalari, foydali modellar, firma nomi, geografik ko'rsatkichlar (kelib chiqish manbasi ko'rsatkichi, kelib chiqish joyining nomi) va g'irrom raqobatning oldini olish kiradi.<sup>4</sup> Shu bilan bir qatorda aytish joizki O'zbekiston Respublikasi Parij konvensiyasining a'zosi hisoblanadi.

Savdo va Intellectual Mulk Huquqlari bo'yicha Kelishuv (TRIPS) 1995-yilda Jahon Savdo Tashkiloti (JST) doirasida imzolangan. JST Trips kelishuvi ham intellectual mulk obyektlarini xalqaro miqyosda huquqiy tartibga solishda muhim xalqaro kelishuvlardan biri bo'lib unga ko'ra savdo va intellectual mulk huquqlari integratsiyasini ta'minlash uchun huquqiy manba hisoblanadi. Ushbu kelishuv iqtisodiy integratsiya kuchaygan bir sharoitda xalqaro darajada intellectual mulk huquqlariga nisbatan himoyani kuchaytirish, patent hamda savdo belgilari va ularning dizaynlariga nisbatan huquqni himoya qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu kelishuv a'zo davlatlarga intellectual mulk obyektlari uchun minimal bo'lgan himoya standartlarini ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Trips kelishuvi bo'yicha a'zo davlatlar intellectual mulk huquqlari buzilishiga qarshi kurashda samarali ijro tizimini yaratish majburiyatini oladi. Bu esa o'z o'zidan davlatlarning huquqiy tizimi kuchayishi uchun harakatlantiruvchi omil vazifasini bajaradi. Agarda intellectual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar buzilishi bo'yicha davlatlar o'rtasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa, ushbu kelishuv orqali tartibga solib qo'yilgan nizolarni hal qilish mexanizmi orqali kelib chiqqan nizolarni hal qilish imkoniyati mavjud.

Ushbu bitim quyidagi vazifalarni amalga oshirishda asosiy dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

TRIPS bitimi:

- Intellektual mulk huquqining bir nechta yo'nalishlari uchun himoyaning minimal standartlarini belgilab beradi.

- Intellektual mulkka oid fuqarolik, jinoiy va chegaraviy huquqni muhofaza qilish bo'yicha batafsil qoidalarni tartibga soladi.

- Nizolarni qonuniy hal etish uchun dasturilamal bo'ladi.

---

<sup>4</sup> Xalqaro xususiy huquq darslik 2019-yil

JSTga a'zo davlatlar TRIPS qoidalarini huquq tizimi va amaliyoti doirasida joriy etishi mumkin. O'zbekiston rasmiylari uchun bitimning barcha nozik qirralarini o'rganib chiqish a'zolik muzokaralarida birlamchi ahamiyatga ega. Shu bois, O'zbekiston tomoni muzokarachilarining sohadagi bilimlarini oshirish maqsadida Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) va Xalqaro Savdo Markazi (XSM) hamkorligida Yevropa Ittifoqining "O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish" loyihasi doirasida TRIPSni o'rganishga bag'ishlangan maxsus seminar tashkil etdi.<sup>5</sup> Ya'ni O'zbekiston hozirda TRIPS bitimining ishtirokchisi emas.

Ushbu kelishuv asosida ishtirokchi davlatlar o'zining milliy qonunchiligini muvofiqlashtirishi kerak hisoblanadi lekin boshqa tomondan olib qaraganda bu kabi holatlar milliy huquqiy tizimlar bilan xalqaro huquq o'rtasida ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Trips kelishuvi umumiy ma'noda a'zo davlatlar orasida intellectual mulk huquqlarini universal himoya qilishni ta'minlaydi. Bundan tashqari ushbu kelishuv orqali a'zo davlatlar dori vositalari va zarur texnologiyalarning keng ommaga kirishida ham muhim hisoblanadi.

Ushbu konvensiyalar va kelishuvlar orqali intellectual mulk obyektlarining himoya qilinishini xalqaro darajada ta'minlash hamda milliy va xalqaro standartlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash maqsad qilib olingan.

### **Mualliflik huquqi**

Mualliflik huquqi tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu huquq O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda boshqa qonunosti hujjatlari bilan mustahkamlab qo'yilgan. Barchamizga ma'lumki mualliflik huquqi deganda birinchi hayolimizga ma'lum bir janrda yozilgan hikoya, roman, qissa yoki she'r va shunga o'xshash ijod mahsullarini tushunamiz. Vaholangki, inson intellekti natijasida yaratilgan har qanday obyektga nisbatan mualliflik huquqi amal qiladi. Demak, intellektual mulk – insonning ijodiy, aqliy faoliyati mahsuli. O'sha mahsulni yaratgan kishida esa unga nisbatan mualliflik huquqi o'z o'zidan vujudga keladi. Shuningdek 2006 yil 23-martda qabul qilingan "Mualliflik huquqlari va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunda ham mualliflik huquqlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish, javobgarlik masalalari keng yoritib berilgan. Ushbu qonunning asosiy maqsadi fan, adabiyot va san'at asarlarini (mualliflik huquqi), ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlarini (turdosh huquqlar) yaratish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.<sup>6</sup>

### **Intellectual mulk obyektlarini o'tkazishda litsenziya shartnomalari**

Intellectual mulk obyektlarini xalqaro miqyosda o'tkazish jarayonida asosiy qiyinchiliklardan biri bu litsenziya shartnomalarining turli xil davlatlarda tan olinishi va u orqali huquqiy kuchga ega bo'lishdan iboratdir. Misol uchun, bir davlat hududida tuzilgan litsenziya shartnomasi boshqa bir davlat hududida tan olinishida bir nechta qonuniy to'siqlar vujudga kelishi ehtimoldan holi emas. Bu kabi holatlar ko'pincha davlatlarning o'z milliy qonunchiligiga bog'liq bo'ladi.

<sup>5</sup> <https://uzbwto.uz/oz/news/sobljudenie-soglasheniya-po-trips-dalnejshe-shagi-v-napravlenii-prisoedineniya-uzbekistana-k-vto>

<sup>6</sup> <https://www.lex.uz/ru/docs/-1022944>

Yuqorida qayd etilgan holatlarni inobatga olgan holda intellectual mulk obyektlarini o'tkazish shartnomalari xalqaro miqyosda bir xil huquqiy kuchga ega bo'lishi uchun muayyan xalqaro huquq mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqaroli kodeksi 1036-moddasi litsenziya shartnomasi to'g'risida bo'lib,

Litsenziya shartnomasi bo'yicha intellectual faoliyat natijasiga yoki xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositaga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan taraf (litsenziar) boshqa tarafga (litsenziat) ga tegishli intellectual mulk obyektlaridan foydalanishga ruxsatnoma beradi. Litsenziya shartnomasi beriladigan huquqlarni, foydalanish chegaralari va muddatlarini aniqlashi lozim. Litsenziya shartnomasi pullik hisoblanadi.

Litsenziya shartnomasi bo'yicha litsenziar intellectual mulk obyektlaridan boshqa shaxslarning rasman foydalanishiga imkon beruvchi muhim fuqarolik huquqiy vosita hisoblanadi. Shartnoma bo'yicha intellectual mulk egasi ikkinchi tarafga ushbu obyektlardan haq evaziga foydalanish uchun ruxsat beradi. Shartnoma bo'yicha huquq egasi agar shartnomada muddat kelishilgan bo'lsa ushbu muddatda va xajmda muhofazaga olingan obyektidan boshqa tarafga foydalanish huquqini berish majburiyatini oladi. Shu bilan birgalikda litsenziat ham belgilangan muddatda shartnomada nazarda tutilgan to'lovlarni va boshqa xarajatlarni to'lash majburiyatini oladi. Uning shakliga keladigan bo'lsak, ushbu litsenziya shartnomasi yozma ravishda tuzilishi lozim. Hamda intellectual mulk obyektlaridan foydalanuvchilarga beriladigan litsenziyalar tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Agar ushbu tartibga rioya etilmasa FK ning 112-moddasiga ko'ra o'z-o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi.

Yuqorida keltirib o'tilgan intellectual mulk obyektlari bilan bog'liq litsenziya shartnomasi bilan bog'liq qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qoidalarni Rossiya Federativ Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan taqqoslaydigan bo'lsak deyarli farq mavjud emas. Ushbu qoidalarni quyida ko'rib chiqamiz. Uning 1226-moddasiga ko'ra intellectual huquqlar batafsil yoritilgan bo'lib, intellectual faoliyat natijalari va individuallashtirish vositalari uchun intellectual huquqlar mulkiy huquq deb hisoblangan mutlaq huquq, shuningdek ushbu kodeksda nazarda tutilgan hollarda shaxsiy huquq deb e'tirof etiladi. Ushbu kodeksning 1228-moddasiga ko'ra ijodiy mehnati bilan shunday natija yaratilgan fuqaro intellectual faoliyat natijasining muallifi hisoblanadi. Litsenziya shartnomasi bo'yicha ushbu kodeksning 1235-moddasi orqali ma'lumot olishimiz mumkin. Unga ko'ra:

Litsenziya shartnomasi bo'yicha intellectual faoliyat natijasi yoki individuallashtirish vositalariga bo'lgan mutlaq huquq egasi bo'lgan bir tomon (litsenziar) boshqa tomonga (litsenziat) natija yoki vositalardan belgilangan chegaralarda foydalanish huquqini berishga majburdir. Litsenziat intellectual faoliyat natijasi yoki individuallashtirish vositalaridan faqat litsenziya shartnomasida belgilangan huquqlar doirasida va tartibda foydalanishi mumkin. Litsenziya shartnomasida aniq ko'rsatilmagan intellectual faoliyat natijalaridan yoki individuallashtirish vositalaridan foydalanish huquqi litsenziatga berilgan deb hisoblanmaydi.

Agar ushbu kodeksda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yozma shaklda tuzilishi kerak.

Litsenziya shartnomasi ushbu kodeks 1232-moddasining 2-bandida nazarda tutilgan hollarda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Agar tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazilmasa yoki yozma shakliga rioya qilinmasa ushbu litsenziya shartnomasi haqiqiy emas deb topiladi.

Ushbu qoidalar O'zb Resi Fuqarolik kodeksi qoidalari bilan deyarli bir xil. Buni yuqorida keltirib o'tilgan O'zbekiston qonunchiligi misolida keltirib o'tdik.

Odatda intellectual mulk obyektlarini o'tkazish shartnomalarini huquqiy tartibga solish muammolari bir nechta asosiy masalalar atrofida jamlanadi. Bular qonunchilik bilan bog'liq muammolar. Ya'ni ushbu obyektlarni o'tkazishda tomonlar turli davlat vakillari bo'lishlari mumkin. Har bir davlatning esa intellectual mulkka oid o'z qonunchiliklari va o'ziga xos qoidalari bo'lganligi sababli qaysi davlat qonunlari qo'llanilishini aniqlash muammolardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari litsenziyalash yoki franshiza shartnomalari kabi masalalar ham mavjud bo'lib, bu shartnomalar milliy qonunchilikka va xalqaro kelishuvlarga mos kelmasligi mumkin. Shuni ham inobatga olish kerakki ushbu litsenziyalash yoki boshqa turli shartnomalar tuzish yoki intellectual mulk obyektlari importi yoki eksportiga nisbatan ba'zi davlatlarda cheklovlar mavjud bo'lishi ham mumkin. Bunda intellectual mulk obyektini bir davlatdan boshqa davlatga o'tkazishda ular bilan bog'liq bo'lgan savdo va patent belgilariga nisbatan qonunchilikning hamda ular huquqiy maqomining tegishli qonunchilik bo'yicha turlicha talqin etilishi tufayli farqlanadi. Shu va shunga o'xshash holatlar tufayli intellectual mulkni xalqaro miqyosda tan olinishi va uning himoyasi bilan bog'liq masalalarda turli xil noaniqliklar vujudga kelish ehtimoli yuqori.

### **Xalqaro hamkorlik va sud amaliyotlari**

Intellectual mulk obyektlarini xalqaro miqyosda o'tkazishda sud amaliyoti bilan bog'liq masalalar hamda davlatlar o'rtasida xalqaro hamkorlik qoidalari juda katta ahamiyatga ega. Ushbu sud amaliyotlari hamda turli hamkorliklar orqali davlatlar o'rtasida vujudga kelgan noaniqliklar kamayadi va intellectual mulk obyektlarining xalqaro miqyosda tan olinishi va himoyasini kuchaytiradi. Sud amaliyotlari orqali intellectual mulk obyektlarini o'tkazishda turli davlatlarda intellectual mulk obyektlari bilan bog'liq huquqlarni tan olish, davlatlar o'rtasida imzolangan shartnomalarni ijro etish va vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydi. Xalqaro xususiy huquqda intellectual mulk bilan bog'liq nizolar asosan xalqaro arbitraj sudlarida ko'rib chiqiladi. Ayrim vaziyatlarda davlatlarda mavjud milliy sudlar xorijiy davlatlarda qabul qilingan qonunlarni qabul qilmaslik holatlariga duch kelishimiz mumkin. Bu kabi holatlar intellectual mulk obyektlariga bog'liq bo'lgan huquqlarni o'tkazishda bir nechta to'siqlarni vujudga keltirishi va tuzilgan shartnomalarning ijrosiga to'sqinlik qilishi mumkin. Bu kabi holatlarda nizolarni hal qilishda bir nechta konvensiyalar mavjud. Ulardan biri Nyu-York konvensiyasi hisoblanadi. Unga ko'ra arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish imkoniyati mavjud va shu bilan birgalikda xalqaro arbitraj qarorlarini milliy sudlarda ijro etish ta'minlanadi. Bu esa xalqaro huquqiy tizimga bo'lgan ishonchni yanada oshiradi hamda intellectual mulk bilan bog'liq nizolarni bartaraf qilishni osonlashtiradi. Ushbu konvensiya 1958-yilda qabul qilingan bo'lib hozirda a'zo davlatlar soni 172 tani tashkil etadi.

Ushbu konvensiya arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish talab qilinayotgan davlatdan boshqa davlat hududida chiqarilgan hamda jismoniy yoki yuridik shaxslar o'rtasidagi kelishmovchiliklardan kelib chiqadigan arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishga nisbatan

qo'llaniladi. U shuningdek, ularni tan olish va ijro etish talab qilinayotgan davlatda ichki qarorlar hisoblanmaydigan arbitraj hal qiluv qarorlariga ham taalluqlidir.<sup>7</sup>

Xalqaro hamkorlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, davlatlar o'rtasida xalqaro hamkorlik intellectual mulk obyektlarini himoya qilishda hamda davlatlar o'rtasida shartnomalarning ijro etilishi va tan olinishi uchun zarur omil bo'lib xizmat qiladi.

### Yechimlar va takliflar

Xalqaro xususiy huquqda intellectual mulk huquqlarini o'tkazish masalasida ushbu jarayonni soddalashtirish uchun xalqaro huquqiy standartlarni kengroq uyg'unlashtirish talab etiladi. Ya'ni yuqorida qayd etganimizdek har bir davlat o'z prinsipi va qonun hamda qoidalariga egaligidan kelib chiqib ularni imkon qadar kelgusida nizolar kelib chiqmasligi uchun uyg'unlashtirish talabi hozirgi kunda xalqaro miqyosda zarur omillardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida xalqaro konvensiya hamda kelishuvlar asosida amalga oshiriladi. Bundan tashqari xalqaro konvensiya yoki kelishuvlar orqali amalga oshirilishidan tashqari regional integratsiya orqali ham amalga oshirilishi lozim. Hozirgi kunda Intellectual mulk sohasi dunyo bo'ylab kundan kunga rivojlanib borayotgan sohalaridan biri ekanligini inobatga olgan holda intellectual mulk obyektlarini o'tkazishda yana bir muhim omillardan bir bu xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish talabining ortishi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni intellectual mulk huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar va davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarning ijro etilishi masalasida davlatlar o'rtasida o'zaro xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish talabi ham ortib bormoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan Nyu-York konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlar yordamida davlatlar o'zaro kelishgan holda arbitraj sudlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni tan olish va uning ijrosini osonlashtirishlariga imkon beradi. Bundan tashqari transchegaraviy huquqiy kelishmovchiliklarni bartaraf etishda samarali vosita sifatida xalqaro arbitrajni keng ko'lamda qo'llash u unda amalga oshiriladigan jarayonlarni imkon qadar soddalashtirish intellectual mulk obyektlarini xalqaro miqyosda o'tkazish bilan bog'liq kelishmovchilik va muammolarni hal qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

### Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak, xalqaro xususiy huquqda intellectual mulk obyektlarini o'tkazish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish shu bilan birgalikda transchegaraviy huquqiy kelishmovchiliklar va davlatlarning o'z milliy qonunchiliklari o'rtasidagi o'zaro farqlarni huquqiy tizimlarini yaratish kabi jihatlarga e'tibor berilishi kerakligi hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biriga aylanib ulgurgan. Xalqaro xususiy huquqda vujudga kelgan nizolarni bartaraf etishda xalqaro tashkilotlarning kelishuvlari va davlatlararo bitimlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Xalqaro xususiy huquqda intellectual mulk obyektlarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan xalqaro shartnomalarni huquqiy jihatdan tartibga solishda xalqaro huquqiy standartlarni uyg'un holga keltirish va xalqaro hamkorlikni yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham intellectual mulk obyektlarini tartibga solishda xalqaro doiradagi huquqiy normalarni imkon qadar mustahkamlash va global miqyosda umumiy bo'lgan huquqiy standartlarni ishlab chiqish talabi ortib bormoqda. Ushbu sohaga doir bo'lgan huquqiy mexanizmlarni yaratish intellectual mulk

---

<sup>7</sup> 1958-yilda qabul qilingan Nyu-York konvensiyasi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

bilan bog`liq bo`lgan huquqlarni global miqyosda tan olinishi va yanada barqaror shu bilan birga himoyalangan qilish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2019-yilgi xalqaro xususiy huquq darslik
2. O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
3. <https://uzbwto.uz/oz/news/sobljudenie-soglashenija-po-trips-dalnejshe-shagi-v-napavlenii-prisoedinenija-uzbekistana-k-vto>
4. <https://www.lex.uz/ru/docs/-1022944>
5. Sanoat mulkini himoya qilish bo`yicha Parij konvensiyasi
6. Rossiya Federativ Respublikasi Fuqarolik kodeksi
7. 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasi